

## **O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA LUG'AT BIRLIKALARINING TURKUMLANISH MASALALARI**

*Ergasheva Aziza Abduhalim qizi*

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi*

*Durmatova Nilufar Shuxratovna*

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy tilshunosligimizda mavjud muammolardan biri so'zlarni turkumlarga ajratish tamoyillari va shu tamoyillar asnosida yuzaga kelgan tasnif turlari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** strukturalizm, leksik ma'no, distributsiya, semantik tasnif, sintaktik tasnif.

**Annotation:** In this article one of the existing problems in our modern linguistics is the principles of classifying words into categories and the types of classification that have arisen based on these principles.

**Key words:** structuralism, lexical meaning, distribution, semantic classification, syntactic classification.

Inson zotining o'ziga xosliklaridan biri shundaki, u hamisha ko'rgan, bilgan narsalarini turlarga, guruhlarga ajratishga moyil bo'ladi. Bu insonning xotirasi bilan bog'liq jarayon bo'lib, unda ma'lum guruhlarga birlashgan birliklarni eslab qolish imkonи yuqori bo'ladi. U bu kabi tasniflarni qiyoslash yoki zidlash orqali amalga oshiradi. Demak, e'tibor qaratilayotgan obyektlar soni ikkitadan ko'pmi, ular orasida guruhanish yuzaga keladi.

Ma'lumki, tilda rang-barang son-sanoqsiz so'zlar bor. Shu bois ham tilshunoslik tarixida olimlar so'zlarni turkumlarga ajratishni diqqat markazida ushlaganlar. Tilshunoslik fanining rivojlanib, mukammallashib borishi bilan so'zlarni turkumlash ishlari ham takomillashib bordi. Lekin hali hamon bu borada olimlar yakdil qarorga kelishgani yo'q. Quyida bu masala yuzasidan bildirilgan o'zbek tilshunos olimlarining nazariy qarashlari bilan tanishib chiqamiz.

"So'zlarni turkumlarga ajratuvchi mezonlar, belgilar to'g'risida ko'p bosh qotirilgan. Bu muammoning yechilish tarixi hozirgi kunda uchta asosiy bosqich: strukturalizmgacha bo'lgan davr; strukturalizm davri; strukturalizmdan keyingi davr, ya'ni hozirgi davrga ajratiladi" [Irisqulov,2008:90]. Tilshunoslik tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, strukturalizm oqimi paydo bo'lgunigacha, ya'ni XX asrning 30-yillarigacha bo'lgan davrda so'zlarni turkumlarga ajratishda, asosan, uch o'lchov: so'zlarning lekisik-grammatik ma'nosidan, so'zlarning grammatik shaklidan, so'zlarning gapdag'i sintaktik vazifasidan foydalanilgan.

Strukturalistlar esa faqat birgina belgi, ya’ni so‘zlarning distributsiyasidan foydalanishadi. So‘zlarning distributsiyasi deganda ularning boshqa so‘zlar bilan birika olish imkoniyatlari tushuniladi.

Hozirgi kun grammatikalarida so‘zlarni turkumlarga ajratishda asosan besh belgi:

- so‘zning leksik-grammatik ma’nosи;
- so‘zning grammatic shakli;
- so‘zning sintaktik vazifalari;
- so‘z yasovchi morflar;
- so‘zning distributsiyasidan foydalaniлadi. [Irisqulov, 2008:91]

Ushbu fikrlarga hamohang tarzda tilshunos olim H.Jamolxonov ot, sifat, son, fe’l, ravish turkumlari nominativ va signifikativ vazifa bajarishini, bu turkumlar asli birikma va gapning bo‘lagi vazifasida kelishiga ko‘ra mustaqil turkumlar deb nomlanganligini aytadi. “Lekin,— deydi olim,— ushbu turkumlarni mustaqil deb nomlashda leksik ma’no ham inobatga olingan. Ammo olmosh mustaqil ma’no anglatmaydi, shunga qaramay mustaqil turkumlar qatoriga kiritiladi. Ko‘rinadiki, hal qiluvchi belgi – birikmaning gapning bo‘lagi vazifasida kelishi” [Jamolxonov, 2005:128]. Shuningdek, olim o‘z kitobida ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklamani “yordamchi so‘z turkumlari”, modal, taqlid, undov so‘zlarni “alohida olingan turkumlar” nomi ostida izoh beradi.

Yana bir guruh G’.Abdurahmonov, Sh.Shukurov, Q. Mahmudov kabi olimlar hammuallifligida nashr etilgan “O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi” darsligida adabiy tilimiz tarixida ham so‘z turkumlari dastavval ikkita katta guruhga: mustaqil va yordamchi so‘zlarga bo‘linganligi keltirilgan[Abdurahmonov, 2008:71]. Darslikda shuningdek mustaqil so‘z turkumlari 3 guruhga ajratilgan: ism, fe’l, ravish. Ism guruhidagi fe’llar o‘z navbatida quyidagi turkumlarga bo‘linadi: ot, sifat, son, olmosh [Abdurahmonov, 2008:71]. Tilshunoslар bu turkumlar uchun so‘z o‘zgartiruvchi kategoriylar(kelishik, egalik va shu kabilar) umumiy ekanini inobatga olib, bu jihatdan ularni bir guruhga – ism guruhiga birlashtirishgan. Lekin ularning har biri uchun maxsus so‘z yasovchi qo‘sishimchalari bo‘lishi va ma’nosи jihatdan har qaysisi mustaqillik da’vo qilishi tabiiy.

Yordamchi so‘z turkumlari masalasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, ular sintaktik vazifalariga ko‘ra 3 turkumga ajratilgan holda keltiriladi:ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama. Darslik mualliflari undovlarni ham shartli ravishda yordamchi so‘zlar guruhiga kiritish mumkin degan nazariyani ilgari surishgan[Abdurahmonov, 2008:71].

Nisbatan yangi darslik hisoblangan hozirda ko‘plab filologiya fakultetlari talabalariga asosiy darslik sifatida o‘qitilayotgan R. Sayfullayeva boshliq bir guruh taniqli tilshunoslар hammuallifligida yaratilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida esa so‘z turkumlar tasnifi mutlaqo o‘zgachalikka yuz tutadi. Bunda so‘zlar semantik, morfologik, sintaktik jihatdan tasniflanadi va ular ichida ham alohida-alohida

shahobchalarga ajratiladi. Dastlab so‘zlarning semantik tasnifiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ular quyidagi guruhlarga ajratiladi:

- a) mustaqil lug‘aviy ma’noli so‘z ( fe’l, ot, sifat, son, ravish, taqlid)
- b) nomustaqlug‘aviy ma’noli so‘z (olmosh va so‘z-gap)
- c) lug‘aviy ma’nosiz so‘z ( ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama)

Bu tasnifda ko‘rinib turibdiki, so‘zlarning semantikasi, ya’ni ma’no anglatish attenkasi bosh mezon qilib olingan. So‘zlarning morfologik tasnifiga binoan esa 2 guruhga:

- a) o‘zgaruvchi leksema (fe’l, ot, sifat, son)
- b) o‘zgarmas leksema (taqlid, ravish, ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama, so‘z-gap).

Morfologik tasnifda so‘zlarning grammatik morflarni qay darajada qabul qila olish xususiyati, ya’ni valentligiga tayanilgan. Bu tasnifda olmoshga o‘rin berilmagan. Chunki u o‘zi ishora qiluvchi barcha mustaqil so‘z turkumiga xos o‘zgarish tizimiga ega.

Leksemalarning sintaktik tasnifi:

- a) gap bo‘lagi bo‘lishga xoslanmagan so‘zlar (undov, so‘z-gap, modal)
- b) gap bo‘lagi bo‘lishga xoslangan so‘zlar (fe’l, ot, sifat, son, ravish, taqlid, olmosh)
- c) sintaktik aloqa vositasi bo‘lishga xoslangan so‘z (ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama). [Sayfullayeva, 2020:189]

Yakuniy xulosa sifatida tilshunoslar o‘zbek tilidagi so‘z turkumlarini mazkur belgilari asosida quyidagi ko‘rinishda tartiblashadi:

### I. Mustaqil so‘zlar

#### II.

1. Fe’l
2. Ot
3. Sifat
4. Son
5. Ravish
6. Taqlid
7. Olmosh

### II. Yordamchi so‘zlar

1. Ko‘makchi
2. Bog‘lovchi
3. Yuklama

### III. Oraliq so‘zlar

1. So‘z-gaplar [Sayfullayeva, 2020:190]

Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, hozirda maktab darsliklariga kiritilgan so‘z turkumlarining tasnifi ko‘pchilik tilshunoslar tan olgan tasnif hisoblanadi. Unga ko‘ra, ot, sifat, son, fe’l, olmosh, ravish – mustaqil so‘z turkumlari, bog‘lovchi, ko‘makchi, yuklama – yordamchi so‘z turkumlari, undov, taqlid, modal – alohida olingan so‘z turkumlari nomi ostida tasniflangan. Bu tasnif nisbatan, R. Sayfullayevaning nazariy qarashlariga uyqash bo‘lsa-da, aynan o‘zi emas. Darslikdagi ushbu tasnif ustida ishlanib, oliy ta’limdagi nazariyalarga hamohang holga keltirilishi tilshunosligimizdagi bir qator muammolarga yechim bo‘la oladi. Birinchidan, maktab va oliy ta’lim o‘rtasida u兹viylik ta’milnadi. Ikkinchidan, yosh mutaxassislar yoki umuman shu fan kishilarida turli fikriy chalg‘ishlar bo‘lmaydi. Agarda maktab o‘quvchilariga ham so‘z turkumlarining ham tasnifi, ham shu tasnifga sabab bo‘lgan tasnif tamoyillari nazariya sifatida berilsa, ular morfologik bilimlarni ancha oson o‘zlashtirishlari mumkin.

Manbalarni o‘rgangan holda xulosa qilib aytish mumkinki, so‘zlarni turkumlarga ajratishning aniq, yagona tamoyilini ishlab chiqish hali hamon munozarali mavzu bo‘lib qolmoqda. Bu ham tilshunosligimiz oldida turgan yechimtalab mavzulardandir.

**Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. T.: 2008, 95-b.
2. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T.: Talqin nashriyoti, 2005. 128-b.
3. Abdurahmonov G‘., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2008, 74-b.
4. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Raupova L.R., Qurbonova M.M., Abuzalova M.Q., Yo‘ldosheva D.N. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T.:2020, 190-b.